



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 25-oktabr

584-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 23-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 22-avgustdagi “Davlat o‘rmon fondiga kirmaydigan daraxtlar va butalarni ekish, parvarish qilish va ulardan foydalanish tartibini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 464-son qarori ijrosiga asosan viloyatdagi davlat o‘rmon fondiga kirmaydigan daraxt va butalarni xatlovdan o‘tkazish to‘g‘risida”gi 501-6-0-Q/24-sonli qarori haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrda PF-46-son Farmoni, Vazirlar Mahkamasining “Davlat o‘rmon fondiga kirmaydigan daraxtlar va butalarni ekish, parvarish qilish va ulardan foydalanish tartibini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” 2022-yil 22-avgustdagi 464-son qarori hamda Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining 2024-yil 9-avgustdagi 02-02/4-7788-son xati va Namangan viloyat hokimining 2024-yil 23-oktabrdagi 501-6-0-Q/24-son qarorida belgilangan vazifalarni tumanda ta‘minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 23-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 22-avgustdagi “Davlat o‘rmon fondiga kirmaydigan daraxtlar va butalarni ekish, parvarish qilish va ulardan foydalanish tartibini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 464-son qarori ijrosiga asosan viloyatdagi davlat o‘rmon fondiga kirmaydigan daraxt va butalarni xatlovdan o‘tkazish to‘g‘risida”gi 501-6-0-Q/24-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. Namangan viloyati hokimining mazkur qarori bilan:

Viloyat hokimining qurilish, to‘siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari G‘.Djamalov, viloyat ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi boshlig‘i v.v.b. Q.Miraxmedovning viloyat hududidagi daraxtlarni xatlovdan o‘tkazish, xatlov natijalariga ko‘ra aniqlangan daraxtlarning soni, turi, holati, yoshi, geografik joylashuvi va boshqa parametrlarini hisobga olgan holda xatlovdan o‘tkazish to‘g‘risidagi taklifi ma‘qullanganligi;

Viloyat hududidagi daraxtlarni xatlovdan o‘tkazish bo‘yicha viloyat ishchi guruhi tarkibi 1-ildan muvofiq;

Viloyat ishchi guruhi:

joylarga chiqqan holda daraxtlarni xatlovdan o‘tkazish, hisobga olish va qayd etish;

daraxtlar reyestri ma‘lumotlarini “Yashil makon” platformasiga kiritish;

xatlov o‘tkazishda yuz yoshdan oshgan daraxtlar aniqlanganda, ularni tabiat yodgorliklari sifatida muhofazaga olish uchun alohida reestr yuritish;

daraxtlarni xatlovdan o‘tkazish ishlarini samarali tashkil etish, tashkilot va idoralarning bu boradagi ishini muvofiqlashtirish, mavjud muammolarni tezkorlik bilan hal qilish choralarini ko‘rish;

Shuningdek, har chorakda daraxtlarni xatlovdan o'tkazish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi hisobotlarni tuman (shahar)lar kesimida viloyat hokimligiga kiritib borish;

Belgilanishicha, viloyat ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi - viloyat ishchi guruhining ishchi organi hisoblanishi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tumanda daraxtlarni xatlovdan o'tkazish bo'yicha tuman ishchi guruhi tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o'rinbosari A.Abdusalomov va tuman hokimining o'rinbosarlari X.Boylarov, B.Muydinov hamda mahallalar uyushmasi tuman bo'limi boshlig'i O.Qodirov zimmalariga yuklatilsin.

Tuman hokimi



A.Mansurov

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 22-avgustdagi 464-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida Davlat o‘rmon fondiga kirmaydigan daraxt va butalarni xatlovdan o‘tkazish bo‘yicha tuman ishchi guruhi

TARKIBI

1.	X.Boylarov	Tuman hokimining qurilish, to‘siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, ishchi guruhi rahbari
2.	A.Karimov	Tuman ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi bo‘limi boshlig‘i, ishchi guruh rahbari o‘rinbosari
3.	A.Xudoyberdiyev	Tuman qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i
4.	F.Mirzahmedov	Tuman obodonlashtirish boshqarmasi boshlig‘i
5.	D.Sayfiddinov	Tuman yo‘llardan foydalanish davlat muassasasi direktori
6.	M.Mamasobirov	Yoshlar ishlari agentligi tuman bo‘limi boshlig‘i
7.	Z.Ahmadjonov	Tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i
8.	O.Qodirov	Tuman mahallalar uyushmasi bo‘limi boshlig‘i
9.	O.Qo‘ldoshev	Tuman sog‘liqni saqlash bo‘limi boshlig‘i
10.	O.Xo‘jayev	Tuman maktabgacha va maktab ta‘limi bo‘limi
11.	X.Inamov	Tuman fermer, dehqon xo‘jaligi va tomorqa yer egalari kengashi raisi
12.	A.Xakimov	Tuman qishloq xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i
13.		Tuman o‘simliklar karantini va himoyasi bo‘limi boshlig‘i
14.	T.Mirzayev	Tuman veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi boshlig‘i
15.	Lavozimiga ko‘ra	Tumandagi tijorat banklari rahbarlari
16.	J.Esonaliyev	Davlat kadastrlari palatasining tuman bo‘limi boshlig‘i
17.	J.Anvarov	Tuman soliq bo‘limi boshlig‘i
18.	Z.Jo‘raboyev	Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i
19.	M.Tolipova	“Namangan suv ta‘minoti” AJ tuman bo‘limi direktori
20.	M.Ismoilov	“Hududgaz” gaz ta‘minoti tuman bo‘limidirektori
21.	B.G‘ulomqodirov	“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ tuman bo‘limi direktori